
TEST VARIANTI RAQAMI: **1957399**

TARIX

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!



1. Buxoro amirligida shayxulislomga bo‘ysungan qaysi amaldor diniy-huquqiy masalalar bilan shug‘ullangan? (XIX asr o‘rtalarida)

A) *dodhoh* B) *muftiy* C) *ko‘kaldosh* D) *sadr*

2. Quyidagi qaysi qo‘zg‘olonlar Buxoroda bo‘lib o‘tgan?
1) Abu Muslim boshchiligidagi qo‘zg‘olon; 2) Abruy qo‘zg‘oloni; 3) Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni; 4) Bobak qo‘zg‘oloni

A) *1, 3* B) *1, 4* C) *2, 3* D) *2, 4*

3. Quyidagi qaysi asarda qozoq xoni Abulxayrxonga qarshi kurashda yengilgan qoraqalpoqlarning azob-uqubatlarga duchor bo‘lganligi, xususan Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlarning har yoqqa tarqab ketgani, ularning mashaqqatli davri tarixi bayon etilgan?

A) *"Ernazarbiy"* B) *"Darbadar el"* C) *"Edigey"* D) *"Oydo‘stbiy"*

4. XVIII asr oxirida Fransiyada Konstitutsiyalar qabul qilingan yillarni belgilang.
1) 1789-yil; 2) 1790-yil; 3) 1791-yil; 4) 1792-yil; 5) 1793-yil; 6) 1794-yil; 7) 1795-yil

A) *1, 4, 7* B) *1, 2, 5* C) *3, 5, 7* D) *3, 4, 6*

5. Quyidagilardan VIII asrda tashkil topgan davlatlarni toping.

A) *Aksum va Qarluqlar davlati*

B) *Aksum va O‘g‘uzlar davlati*

C) *Gana va O‘g‘uzlar davlati*

D) *Gana va Qarluqlar davlati*

6. Quyidagi voqealardan qaysi biri Xalqlarning buyuk ko‘chishlari yuz bergan davr oralig‘ida sodir bo‘lgan?

A) *G‘arbiy turk xoqonligi nihoyatda kuchaydi*

B) *Arablarda urug‘chilik jamiyati inqirozi tezlashdi*

C) *Xorazm Qang‘ davlatidan ajralib chiqdi*

D) *O‘rta Osiyoda Kidariylar davlati tashkil topdi*

7. Quyidagilardan XIV asrda bo‘lib o‘tgan voqeani toping.

A) *Dehli sultonligiga asos solindi*

B) *Amir Temur Dehli sultonligini bosib oldi*

C) *Dehli sultonligida Sayyidlar sulolasi taxtga keldi*

D) *Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish Panjob, Sind, Bengaliyani egalladi*

8. SSSR va AQSH o‘rtasida SQCH-2 shartnomasi imzolangan yilni toping.

A) *1985-yil* B) *1975-yil* C) *1982-yil* D) *1979-yil*

9. 1883-yilda quyidagi qaysi davlatda "Mehnatni ozod qilish" guruhi tuzilgan?

A) *Yaponiyada* B) *Avstriya-Vengriyada* C) *Xitoyda* D) *Rossiyada*

© Davlat test markazi, 2019

10. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat) tarixi bilan bog‘liq to‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni toping.



A) *XIX asr oxirida Eritreyani o‘ziga bo‘ysundirdi*

B) *1848-yilda Respublika deb e‘lon qilindi*

C) *1510-yilda Kubani bosib oldi*

D) *XVIII asr boshida Gibraltarni o‘z tasarrufiga oldi*

11. 1906-yilda nashr etila boshlagan "Xurshid" gazetasi muharriri bo‘lgan, quyidagi rasmda tasvirlangan vatandoshimiz faoliyati bilan bog‘liq to‘g‘ri ma’lumotni belgilang.



A) *Uning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga "Behbudiya kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.*

B) *Buxoroda "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini tashkil qilib, talabalarni Turkiyaga o‘qishga yuborgan.*

C) *O‘zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklarni yaratgan.*

D) *Jadid maktablari uchun "Adibi avval", "Adibi soniy", "Yer yuzi" kabi darsliklarni yaratgan.*

12. Quyidagilardan qaysilari Afinada Solon hukmronligi davrida sodir bo‘lgan?
1) dehqonlarning qarzlari bekor qilindi;
2) qarzdorlarni qul qilish bekor qilindi; 3) faqat zodagonlar davlat boshqaruviga ishtirok etadigan bo‘ldi; 4) nasl-nasabidan qat’i nazar, afinaliklarga davlat mansablarini egallash imkoniyati berildi; 5) Xalq Majlisi faoliyati tiklandi; 6) Xalq majlisi lavozimlariga ish haqi to‘lash joriy etildi.

A) *2, 3, 4, 6* B) *1, 2, 4, 5* C) *1, 3, 4, 6*
D) *2, 3, 5, 6*

13. Qachondan boshlab Turkistonda an‘anaviy devoriy naqshlarda ilgari ishlatilmagan manzaralar – suzib borayotgan kema, temiryo‘llar va hayvonlar tasvirlangan naqshlar kirib kela boshlagan?

A) *XIX asrning 80-yillarida*
B) *XX asr boshlarida*
C) *XIX asrning 70-yillarida*
D) *XIX asrning 90-yillarida*

© Davlat test markazi, 2019

14. Quyidagi voqealar to‘g‘ri xronologik tartibda berilgan javobni toping.
1) Germaniya ikkinchi marta imperiya deb e’lon qilindi; 2) Avstriya-Vengriya imperiyasi tashkil topdi; 3) Xitoy Respublika deb e’lon qilindi; 4) Fransiyada Uchinchi Respublika e’lon qilindi; 5) Braziliya Respublika deb e’lon qilindi
A) *2, 4, 1, 5, 3* B) *4, 2, 5, 1, 3*
C) *2, 4, 1, 3, 5* D) *4, 2, 1, 3, 5*

15. 1925-yil 6-12-fevralda Buxoro shahrida O‘zbekiston Kommunistik partiyasining I ta’sis syezdida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti (Qo‘mitasi) ning mas’ul sekretarlari (kotibi) etib kimlar saylangan?
1) V.Ivanov; 2) F.Xo‘jayev; 3) A.Ikromov; 4) U.Xo‘jayev
A) *2, 3* B) *1, 3* C) *3, 4* D) *1, 2*

16. Quyidagi janglar bo‘lib o‘tgan yillariga qarab to‘g‘ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni belgilang.
1) “Xalqlar jangi”; 2) Borodino jangi; 3) Vaterloo jangi
A) *2, 1, 3* B) *1, 3, 2* C) *1, 2, 3* D) *2, 3, 1*

17. Quyidagilardan to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.
1) Abdulatif Hirot taxtini tashlab, Movarounnahrga qaytgach, Ulug‘bek tomonidan Buxoroga noib qilib tayinlanadi; 2) Shohruxning vafotidan so‘ng Xuroson taxtini Boysung‘urning o‘g‘li Alouddavla egallaydi; 3) 1448-yilda Abdulatif Movarounnahr taxtini egalladi; 4) 1425-yilda Ulug‘bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o‘ziga xos “zafarnoma” hozirgi kungacha saqlangan; 5) 1449-yilda Ulug‘bek Abdulatifdan yengilgach, Samarqand va Shohruxiya shaharlariga kira olmay taslim bo‘ldi; 6) 1447-yilning 12-martida Mirzo Ulug‘bek 55 yoshida fojiali halok bo‘ladi.
A) *1, 3, 6* B) *2, 4, 6* C) *2, 4, 5* D) *1, 3, 5*

18. SSSR davlat rahbari I.Stalin vafot etgan yilni belgilang.
A) *1956-yil* B) *1960-yil* C) *1953-yil*
D) *1959-yil*

19. Quyidagilardan IX asrda bo‘lib o‘tgan voqeani belgilang.
A) *Konstantinopolda Magnavr oliy maktabi tashkil etildi.*
B) *Italiyada Neapol universiteti tashkil etildi.*
C) *Yevropaning yirik shaharlarida dastlabki universitetlar ochila boshladi.*
D) *Xitoyda Xanlin akademiyasi tashkil etildi.*

20. Qaysi Angliya hukmdori o‘zining cherkov boshlig‘i ekanligidan foydalanib, protestantlikni shakkoklik deb e’lon qildi va katolik cherkovini tiklashga kirishdi?
A) *Mariya Tyudor* B) *Yelizavetta I*
C) *Genrix VIII Tyudor* D) *Yakov I*

21. Xivaga Buxorodan O‘rozboy Jo‘ra va Avaz Murod yasovulboshi boshchiligidagi elchilar qaysi Xiva hukmdori davrida kelgan?
A) *Rahimqulixon* B) *Olloqulixon*
C) *Eltuzar* D) *Muhammad Rahimxon I*

22. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning "O‘zbekistonda teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida"gi farmoni nechanchi yilda e’lon qilingan?
A) *1997-yil* B) *1995-yil* C) *1996-yil*
D) *1998-yil*

23. 1990-yil 20-iyunda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sessiyasida Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha Prezident I.A.Karimov boshchiligida necha kishidan iborat komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilgan?
A) *40 kishidan* B) *64 kishidan*
C) *32 kishidan* D) *54 kishidan*

24. Afg‘oniston va Buyuk Britaniya o‘rtasida 1893-yilda imzolangan bitimga ko‘ra, ...
A) *ingliz fuqarolarining Afg‘onistonga erkin kirib-chiqishlariga ruxsat berildi*
B) *Afg‘oniston janubidagi afg‘on qabilalari hududlari Buyuk Britaniya qaramog‘ida qoladigan bo‘ldi*
C) *turkmanlar yashaydigan joylarda afg‘on-ingliz chegaralari qat’iy belgilab olindi*
D) *mamlakat hududi shimolda Amudaryogacha kengaytirildi*

© Davlat test markazi, 2019

25. Quyidagi qaysi davlat hukumati 1894-yilda sentabrning birinchi dushanbasini "Mehnat kuni" bayrami deb e'lon qilishga majbur bo'lgan?

A) *Germaniya* B) *Buyuk Britaniya*
C) *AQSH* D) *Fransiya*

26. Paul fon Gindenburg A.Gitlerni reyxkansler lavozimiga tayinlagan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) *Yaponiya va Germaniya antikomintern paktini imzoladi.*
B) *Rapallo shartnomasi imzolandi.*
C) *AQSH Sovet Ittifoqini tan oldi.*
D) *Turkiya Respublika deb e'lon qilindi.*

27. Quyidagi qaysi din miloddan avvalgi I ming yillikda hali odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda vujudga kela boshlagan?

A) *animizm* B) *zardushtiylik*
C) *nasroniylik* D) *moniylik*

28. Quyidagi qaysi hukmdorlar uchun jahonga mashhur maqbaralar bunyod etilgan?

A) *Sin Shixuandi, Tutanxamon*
B) *Perikl, Tutanxamon*
C) *Xammurapi, Drakont*
D) *Chandragupta, Sin Shixuandi*

29. Quyidagilardan XIX asrda yozilgan asarni toping.

A) *"Abdullanoma"*
B) *"Bahr ul-asror"*
C) *"Gulshan ul-muluk"*
D) *"Xoqonga foydali maslahatlar"*

© Davlat test markazi, 2019

30. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar mos ravishda berilgan?

№	Hukmdor	Voqea	Yil
1.	Buxoro xoni Abulfayzxon	Rossiya hukumati N.Muravyovni Buxoroga elchi qilib jo'natdi	1819
2.	Xiva xoni Shohniyoz	Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'radi	1700
3.	Xiva xoni Elbasrxon	Eron shohi Nodirshoh Xiva xonligini bosib oldi	1740
4.	Qo'qon xoni Xudoyorxon	Namangan aholisi kuchi bilan katta Yangi ariq kanali qazildi	1819-1822
5.	Angliya qiroli Yakov II	Mamlakat parlamenti qirol huzuridagi "Maxfiy Kengash"ning Oliy sudni amalga oshirish vakolatini bekor qildi	1646
6.	Fransiya qiroli Lyudovik XVI	Mamlakat Ta'sis majlisi "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"ni qabul qildi	1789

A) *2, 3, 6*

B) *1, 4, 5*

C) *1, 3, 5*

D) *2, 4, 6*

Test varianti "Test topshiriqlari to'plami 2019" asosida shakllantirilgan:

1 – 40-bet 3	7 – 56-bet 28	13 – 42-bet 22	19 – 55-bet 15	25 – 82-bet 79
2 – 23-bet 46	8 – 91-bet 2	14 – 88-bet 124	20 – 65-bet 9	26 – 96-bet 65
3 – 31-bet 7	9 – 77-bet 22	15 – 48-bet 21	21 – 36-bet 58	27 – 9-bet 25
4 – 74-bet 86	10 – 109-bet 44	16 – 67-bet 32	22 – 53-bet 54	28 – 9-bet 32
5 – 19-bet 4	11 – 112-bet 12	17 – 29-bet 93	23 – 49-bet 15	29 – 37-bet 71
6 – 59-bet 64	12 – 16-bet 82	18 – 91-bet 5	24 – 81-bet 64	30 – 124-bet 29

© Davlat test markazi, 2019